



## MAKTABGACHA TA'LIMDA INTERFAOL USULLARNING QO'LLANISHI

**O'rinova Feruzaxon O'ljayevna**

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası

dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

+998905613077

[furinova3@gmail.com](mailto:furinova3@gmail.com)

**Annotatsiya:** Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish jiddiy ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun esa, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning o'zlari ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda interfaol usullarga misollar va ularning qo'llanishi holati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** STEAM, SMART, aql markazlari, erta bolalik, sun'iy intellekt, zamonaviy yondoshuv, markaz, rivojlanish, ijodiy va innovatsion yondashuvlar, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, faol muloqot, yakka tartib.

**Аннотация:** В настоящее время использование современных методов обучения имеет большое значение в повышении качества и эффективности образовательного процесса в дошкольной образовательной организации. Для этого, прежде всего, сами педагоги-педагогические должны в совершенстве владеть передовыми педагогическими и информационно-коммуникационными технологиями. В данной статье рассматриваются примеры интерактивных методов в дошкольном образовании и состояние их использования.



**Ключевые слова:** STEAM, SMART, интеллектуальные центры, раннее детство, искусственный интеллект, современный подход, центр, развитие, творческий и инновационный подходы, критическое мышление, самостоятельное мышление, активное общение, индивидуальный заказ.

**Abstract:** Currently, the use of modern teaching methods in preschool educational organizations is of great importance in improving the quality and efficiency of the educational process. To achieve this, first of all, educators themselves must master advanced pedagogical and information and communication technologies. This article discusses examples of interactive methods in preschool education and the state of their application.

**Key words:** : STEAM, SMART, intelligence centers, early childhood, artificial intelligence, modern approach, center, development, creative and innovative approaches, critical thinking, independent thinking, active communication, individual mode.

Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish jiddiy ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun esa, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning o'zlari ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Buning uchun ushbu masalalarni maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari malakasini oshirish kurslarida o'rgatib borilmoqda.

Zamonaviy pedagogik-texnologiyalarning turlari va yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'proq qo'llaniladiganlaridan bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihalash metodi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishga



zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi.

Bulardan aqliy hujum va klaster (tarmoqlash) metodlari turli mavzularda ko'proq ishlatilib, turlicha talqin etiladi. Masalan, klaster usulining turli mavzularga moslashtirilgan holda qo'llanish shakllari klaster-chambarak, klaster-oval, klaster-yulduzcha, klaster-uzum shodasi va shu kabilardan iborat.

Klaster - bu interfaol usul hisoblanib, pedagogik-didaktik strategiyaning muayyan shaklidan iborat. U tarbiyalanuvchilarda fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi. Unda aniq bir ob'ekt tanlanib ob'ektning turli qirralari ochib beriladi va albatta tarbiyalanuvchilarda psixik jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bunda bolalarning ko'rishi, sezgisi, xayol tezligi, nutqi va albatta tafakkuri rivojlanadi. Bolalar xayol kilishga, o'ylashga, tasavvur kilishga, eng asosiysi esa, (xatomi, to'g'rimi) fikrlashga harakat qiladilar.

Bunday mashg'ulotlarda ishtirokchi-tarbiyachilarni kichik guruhlariga ajratiladi yoki yakka tartibda topshiriqlar beriladi. Berilgan topshiriq-mavzulari yoki muammolarning yechimlarini topish uchun ularni mashg'ulot rahbari bilan hamkorlikda pedagogik va psixologik nuqtai nazarlardan tahlil etib, xulosalar umumlashtiriladi.

Shunday usullardan maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda qo'llash, tarbiyachilar bunday mashg'ulotlarni har turli qiziqarli shakllarda tashkil qilishlari mumkin. Shunday mashg'ulotlardan biri multfilmlar mavzusidagi mashg'ulotlarda qo'llaniladigan klaster usuli - mul'tklaster bo'lib, bunday o'yin shaklidagi mashg'ulotning maqsadi; bolalarni xayolan tasavvur qilishga, to'qirlikka, nutqi ravon bo'lishiga, so'zlarni to'ib ga'irishga, gap tuzishga o'rgatishdir. Bu interfaol o'yinda bolalarga mult'film qahramonlari tasvirlangan klaster namoyish etiladi va ularga oddiy savollar shaklida ifodalangan to'shiriqlar beriladi. Bunda ularni ijodiy fikrlashga yunaltiriladi.



Interfaol usullarda qo'llaniladigan yondashuvlardan yana biri "Venn diagrammasi" bo'lib, undan asosan ikki yoki undan ko'p tushunchalarni o'zaro qiyoslash, o'zaro tahlil qilish, ayrim jihatlarini aniqlash va xulosalar chiqarish maqsadlarida foydalaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ushbu usuldan tarbiyalanuvchilar uchun boshqotirma - o'yin shaklida ko'proq foydalaniladi. Bu o'yinda tarbiyalanuvchilarning tarbiyachi bergan yo'nalishga muvofiq berilgan mavzu bo'yicha mustaqil fikrlashlari tashkil qilinadi.

Bolalar bir-biriga o'xshash predmet va hayvon, tabiat hodisalarining o'xshash taraflarini va asosiy farqlarini topadilar, ularning asosiy belgi va farqlarini o'yin orqali bilib oladilar, ularda mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Ushbu o'yin bir-birini kesib o'tuvchi ikkita yoki bir nechta doiralar chizilib, ularning har biri bitta tushuncha uchun ajaratiladi va boshqa doira bilan kesishgan (bir-birining ichiga kirgan) qismida tegishli tushunchalarning o'xshash yoki farqli hamda boshqa aniqlanayotgan jihatlarini yozish shaklida olib boriladi.

Interfaol usullarni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- tarbiyalanuvchilar guruxlarga bo'linadi, yozuv taxtasiga to'shriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi yoki A-3 formatidagi qog'ozda oldindan tayyorlangan sxemani osib qo'yish mumkin.

- har bir bola guruh oldida o'z fikrini aytadi, u xato yoki to'g'ri fikr bo'lishidan qat'iy nazar, tarbiyachi buni qabul qiladi va mashg'ulot yakunida tegishlicha tuzatishlar kiritadi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'limda quyidagi pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda.

- Mariya Montessori texnologiyasi
- Imen texnologiyasi
- Interfaol ta'lim texnologiyasi
- Loyihali ta'lim
- Muammoli ta'lim
- Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim



Xulosa o‘rnida quyidagi rivoyatni keltiramiz.

Kunlardan bir kun ko‘l bo‘yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: «Men ochman, menga yorlam ber!» debdi. Donishmand quyidagicha javob beribdi: «Men senga baliq berishim mumkin, sen tez to‘yasan va biroz vaqt o‘tgach, xuddi shunday yana och qolasan va mendan yana yordam so‘raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojat qilishingga to‘g‘ri keladi, Yaxshisi, men senga qarmoq yasashni o‘rgataman, bu uzoq va qiyin, lekin keyinchalik senga mening yordaminga muxtoj bo‘lmaysan. O‘z yo‘lingni tanla.»

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi pedagog o‘quvchilariga «qarmoq yasashni» o‘rgatishi va aqlli o‘quvchi esa uni o‘rganishi lozim. O‘quvchilar «qarmoq yasashni» qanchalik tez va mustahkam o‘rganib olsalar, ular shunchalik birovlariga muxtoj bo‘lmasdan o‘z «ovlariga» ega bo‘ladilar. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan‘anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo‘l kelishini tadqiqotchilar tomonidan turli ta‘lim muassasalarida o‘tkazilayotgan ko‘pgina pedagogik tajribalarning natijalari tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar o‘z sohalar bo‘yicha olib borayotgan mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llashni bilishlari davr talabidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. T.: BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), 2018.  
Tuzuvchilar: I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, SH.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.-T.:MTV, 2018.- 71 bet



2. Волосовец Т.С., Маркова В.А., Аверина С.А. STEM-образование детей дошкольного и молодого школьного возраста. М. БИНОМ.. Лабораторное дело 2019.
3. Евдокимова Е.С. Технология проектирования в ДОУ Е.С.Евдокимова. – М.: ТС Сфера, 2006. – 64 с.
4. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 311-315.
5. Urinova F., Azizmatova Z., Fazliddinova . Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
6. O'rinova F. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
7. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation.– 2022.– т.1 №. B2. – с. 107-110.
8. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 654-659.
9. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 47-51.
10. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. The concept of cosmonics and its nature”. International conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022



11. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/(2022).
12. Uljaevna U. F. et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C. 444-448.
13. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – T. 4. – c. 444-448.
14. Uljayevna O. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 88-91.